

## ALI SHARIATIY TAFAKKURIDA “ONG INQILOBI” VA “MA’NAVIY TRANSFORMATSIYA” MUAMMOSI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-22-161-166>

**Qahramonov Samandar**

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,  
Sharq falsafasi va madaniyati mutaxassisligi magistranti  
**Ilmiy rahbar: PhD, dotsent Sulaymonov J.B.**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Ali Shariatiy ning ijtimoiy-falsafiy qarashlari an’anaviy talqinlardan farqli ravishda “ong inqilobi” paradigmasi doirasida tahlil qilinadi. Tadqiqotda Shariatiy nazariyasining markazida tashqi siyosiy o’zgarish emas, balki ichki ongiy transformatsiya turishi asoslab beriladi. Shuningdek, uning qarashlari G’arbning ekzistensializm va dekolonial tafakkuri bilan qiyosiy tahlil qilinib, Shariatiy tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy o’zgarish modeli epistemologik nuqtai nazardan qayta talqin qilinadi.

**Kalit so’zlar:** ong inqilobi, transformatsiya, epistemologiya, diniy ong, dekolonial tafakkur, ijtimoiy subyekt

**Abstract:** This article analyzes the socio-philosophical views of Ali Shariatiy within the framework of the “revolution of consciousness” paradigm, differing from traditional interpretations. The study substantiates that the core of Shariati’s theory is not external political change, but internal transformation of human consciousness. In addition, his ideas are comparatively examined in relation to Western existentialism and decolonial thought, and the model of social transformation developed by Shariati is reinterpreted from an epistemological perspective.

**Keywords:** revolution of consciousness, transformation, epistemology, religious consciousness, decolonial thought, social subject

**Аннотация:** В данной статье социально-философские взгляды Ali Shariatiy анализируются в рамках парадигмы «революции сознания», отличающейся от традиционных интерпретаций. В исследовании обосновывается, что в центре теории Шариати находится не внешнее политическое изменение, а внутренняя трансформация человеческого сознания. Кроме того, его идеи рассматриваются в сравнительном аспекте с западным экзистенциализмом и деколонизальным мышлением, а разработанная им модель социального преобразования переосмысливается с эпистемологической точки зрения.

**Ключевые слова:** революция сознания, трансформация, эпистемология, религиозное сознание, деколонизальное мышление, социальный субъект.

### KIRISH

Zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurda jamiyatni o’zgartirish masalasi ko’pincha siyosiy tizimlar yoki iqtisodiy mexanizmlar orqali tushuntiriladi. Biroq bu yondashuv

inson ongining ichki tuzilmasini ikkinchi darajaga tushirib qo‘yadi. Shu jihatdan qaraganda, Ali Shariatiy konsepsiyasi klassik sotsiologik modellarni rad etgan holda, ijtimoiy o‘zgarishning asosiy manbai sifatida inson ongini markazga qo‘yadi. Shariatiy nazariyasida jamiyatdagi inqiroz tashqi omillar natijasi emas, balki ongiy deformatsiya mahsuli sifatida talqin qilinadi. Shu sababli u ijtimoiy islohotni siyosiy emas, balki ma‘naviy-intellektual jarayon sifatida tushuntiradi.

Ali Shariatiy ijtimoiy o‘zgarish muammosini bevosita insonning ichki ongiy holati bilan bog‘laydi. Uning “Man and Islam” asarida inson ikki holatda talqin qilinadi: “bashar” (biologik mavjudot) va “insan” (ongli, mas‘uliyatli mavjudot) [1. B. 52]. Shariatiyga ko‘ra, jamiyatdagi passivlik aynan insonning “bashar” darajasida qolib ketishi bilan bog‘liq bo‘lib, haqiqiy o‘zgarish “insan” darajasiga ko‘tarilish orqali yuzaga keladi. Bu yerda ijtimoiy o‘zgarish tashqi omil emas, balki ontologik o‘zgarish sifatida asoslanadi.

U “Religion vs. Religion” asarida bu fikrni yanada aniqroq qilib, dinni ikki modelga ajratadi:

1. “hukmron din” – mavjud tartibni oqlovchi
2. “inqilobiy din” – ongni uyg‘otuvchi va qarshilikni shakllantiruvchi [2. B. 41].

Shariatiy aynan ikkinchi model orqali inson ongida “mas‘uliyat hissi” paydo bo‘lishini ko‘rsatadi. Bu yerda dalil sifatida u Abu Zar G‘ifforiy obrazini keltirib, uni ijtimoiy adolatsizlikka qarshi ongli qarshilik namunasi sifatida talqin qiladi [2. B. 67]. Demak, Shariatiy uchun tarixiy o‘zgarish tashqi kuch emas, balki ongli shaxslar orqali amalga oshadi. Shariatiy “On the Sociology of Islam” asarida jamiyatni harakatga keltiruvchi asosiy kuch sifatida iqtisodiy bazisni emas, balki “mafkuraviy ong”ni ko‘rsatadi. U shunday yozadi: jamiyatdagi har qanday ijtimoiy tizim avvalo ongda shakllanadi va keyin institutlarga aylanadi [4. B. 83]. Bu tezis orqali u marksistik determinizmni rad etadi. Marksizm da “bazis → ustqurma” modeli ustun bo‘lsa, Shariatiyda aksincha:

ong → harakat → tizim modeli ilgari suriladi.

Bu nuqtada Shariatiy Frantz Fanon ning dekolonial nazariyasiga yaqinlashadi. Fanon mustamlakachilikni avvalo inson ongini egallash orqali amalga oshishini ta‘kidlab, “qullikdan ozod bo‘lish – bu ongiy jarayon” ekanini yozadi [10. B. 36]. Shariatiy aynan shu mexanizmni islomiy asosda qayta talqin qilib, musulmon jamiyatlaridagi passivlikni “ichki qaramlik” natijasi sifatida izohlaydi. Shu bilan birga, Jean-Paul Sartre insonni erkin tanlov qiluvchi mavjudot sifatida talqin qilib, uni o‘z taqdirining muallifi deb belgilaydi [11. B. 29]. Biroq Shariatiy bu yondashuvni kengaytiradi: uning nazariyasida tanlov individual emas, balki ijtimoiy oqibatlariga ega. Ya‘ni, insonning ongiy uyg‘onishi faqat shaxsiy ozodlik emas, balki jamiyatdagi adolatsizlikka qarshi faol pozitsiyani ham anglatadi.

Natijada Shariatiy konsepsiyasida ijtimoiy o‘zgarish quyidagi aniq mexanizm asosida amalga oshadi:

- inson “bashar” holatidan “insan” darajasiga o‘tadi [1. B. 52];
- din ongni passivlikdan faoliyatga o‘tkazadi [2. B. 41];
- mafkuraviy ong ijtimoiy harakatni shakllantiradi [4. B. 83].

Shu orqali u ijtimoiy transformatsiyani tashqi inqilob emas, balki ichki ongiy inqilob natijasi sifatida ilmiy asoslaydi.

Ali Shariatiy tarixiy subyekt masalasini tahlil qilar ekan, uni an’anaviy sotsiologik yondashuvlardan keskin farqlaydi. “Man and Islam” asarida u insonni tayyor ijtimoiy rol egasi sifatida emas, balki “o’zini yaratish qobiliyatiga ega mavjudot” sifatida talqin qiladi, ya’ni inson mavjud sharoit mahsuli emas, balki uni o’zgartira oladigan ongli kuchdir [1. B. 61]. Shu nuqtada Shariatiy tarixiy jarayonlarni belgilovchi omil sifatida iqtisodiy sharoitni emas, balki insonning o’z holatini anglash darajasini asosiy mezon sifatida qo’yadi. Mazkur yondashuv “On the Sociology of Islam” asarida yanada aniqlashadi: Shariatiy jamiyatdagi o’zgarishlarni “mafkuraviy ong” orqali tushuntirib, tarixiy harakatni boshlovchi kuch moddiy resurslarga ega guruh emas, balki o’z pozitsiyasini anglagan shaxs ekanini ko’rsatadi [4. B. 90]. U bu fikrni abstrakt tarzda emas, balki tarixiy misol orqali asoslaydi — Abu Zar G’ifforiy obrazini tahlil qilib, uning iqtisodiy yoki siyosiy kuchga ega bo’lmagan holda ham mavjud tuzumga qarshi chiqqanini ko’rsatadi. Bu yerda muhim jihat shundaki, qarshilikning manbai tashqi kuch emas, balki ichki ishonch va ongiy pozitsiya hisoblanadi.

Shariatiy ijtimoiy kurashni faqat tashqi qarama-qarshilik sifatida tushuntirishni yetarli deb hisoblamaydi. “Religion vs. Religion” asarida u inson ichida mavjud bo’lgan ikki qarama-qarshi holat — itoat va qarshilikni ajratib ko’rsatadi [2. B. 58]. Agar inson ongida itoat ustun bo’lsa, u tashqi zulmga qarshi chiqmaydi; aksincha, ichki norozilik shakllangan taqdirdagina ijtimoiy qarshilik yuzaga keladi. Demak, tashqi kurash ichki qarorning natijasi sifatida talqin qilinadi. Bu fikr Frantz Fanon ning mustamlaka psixologiyasi haqidagi tahlillari bilan hamohang bo’lib, Fanon mustamlakachilikning eng kuchli shakli insonning ongini bo’ysundirish ekanini ta’kidlaydi [10. B. 42]. Shariatiy esa bu jarayonni diniy va ijtimoiy kontekstda izohlab, passivlikni “ichki taslim bo’lish” natijasi sifatida baholaydi. Shu sababli u ijtimoiy o’zgarishning boshlanish nuqtasini tashqi tizimni ag’darishda emas, balki insonning ichki qarorini o’zgartirishda ko’radi.

Natijada Shariatiy nazariyasida tarixiy subyekt sifatida sinf yoki omma emas, balki o’z holatini anglab, ichki qaror qabul qilgan shaxs maydonga chiqadi. Bunday yondashuv ijtimoiy transformatsiyani ikki bosqichli jarayon sifatida tushuntiradi: avvalo inson ongida qarshilik shakllanadi, so’ngra bu qaror ijtimoiy harakatga aylanadi. Shu orqali Shariatiy tarixiy jarayonlarni tashqi omillar bilan emas, balki ichki ma’naviy transformatsiya orqali izohlaydi.

Ali Shariatiy o’z qarashlarida mustamlakachilikni faqat siyosiy yoki iqtisodiy hukmronlik sifatida emas, balki inson tafakkuriga singib ketgan ongiy qaramlik shakli sifatida talqin qiladi. “Marxism and Other Western Fallacies” asarida u G’arb tafakkurini tanqid qilar ekan, asosiy muammo G’arb g’oyalarining o’zida emas, balki ularni tanqidiy tahlilsiz qabul qilishda ekanini ta’kidlaydi [5. B. 23]. Bu yerda Shariatiy intellektual qaramlikni “tayyor fikrni o’zlashtirish” orqali shakllanadigan ongiy inertsia sifatida ko’rsatadi.

Shariatiy “On the Sociology of Islam” asarida musulmon jamiyatlaridagi inqirozni aynan shu holat bilan bog‘lab, G‘arb modelini mexanik tarzda ko‘chirish jamiyatni rivojlantirmasligini, aksincha, uning ichki strukturasi izdan chiqarishini asoslaydi [4. B. 101]. Unga ko‘ra, har qanday g‘oya tarixiy va madaniy kontekst bilan bog‘liq bo‘lib, uni boshqa muhitga moslashtirmasdan qo‘llash natijasida tafakkuriy parchalanish yuzaga keladi. Bu fikr Frantz Fanon ning mustamlaka ongiga oid tahlillari bilan bevosita mos keladi. Fanon mustamlakachilik sharoitida inson o‘zini begona qadriyatlar orqali anglay boshlashini va natijada o‘zligini yo‘qotishini ko‘rsatadi [10. B. 148]. Shariatiy aynan shu jarayonni davom ettirib, musulmon jamiyatlarida G‘arb tafakkurining tanqidiy filtrsiz qabul qilinishi natijasida “ikkinchi darajali ong” shakllanishini ta’kidlaydi.

Shariatiy bu muammoni hal qilish uchun “rad etish” yoki “to‘liq qabul qilish” yo‘lini emas, balki uchinchi modelni taklif qiladi. U “Man and Islam” asarida insonning vazifasi tashqi g‘oyalarni inkor etish emas, balki ularni qayta talqin qilish ekanini yozadi [1. B. 88]. Bu yerda muhim jihat — g‘oyani qabul qilish emas, balki uni o‘z tarixiy va ma’naviy asoslari bilan uyg‘unlashtirishdir. Mazkur yondashuv Hamid Dabashi tomonidan ham tasdiqlanadi. Dabashi Shariatiy tafakkurini tahlil qilib, uning asosiy maqsadi G‘arbn rad etish emas, balki uni “intelektual jihatdan qayta ishlab, mahalliy ongga moslashtirish” ekanini ta’kidlaydi [7. B. 125]. Bu esa Shariatiy qarashlarining anti-g‘arbiy emas, balki postkolonial xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi.

Natijada Shariatiy konsepsiyasida intellektual mustaqillik tayyor g‘oyalarni rad etish orqali emas, balki ularni ongli ravishda qayta ishlab chiqish orqali shakllanadi. Shu sababli u mustamlakachilikka qarshi kurashni siyosiy ozodlik bilan emas, balki tafakkuriy mustaqillik bilan bog‘laydi. Bu yondashuv Shariatiy nazariyasini oddiy ideologik tanqiddan chiqarib, uni ongiy dekolonizatsiya modeli darajasiga olib chiqadi.

**Tahlil va natijalar:** Yuqoridagi tahlillar asosida shuni ko‘rish mumkinki, Ali Shariatiy tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy o‘zgarish modeli an’anaviy ijtimoiy nazariyalardan tubdan farq qiladi. Klassik yondashuvlarda jamiyatdagi transformatsiya tashqi omillar — iqtisodiy tizim, siyosiy institutlar yoki sinfiy qarama-qarshiliklar orqali izohlangan bo‘lsa, Shariatiy bu jarayonning markaziga inson ongini qo‘yadi. Bu esa ijtimoiy o‘zgarishni sabab–natija zanjiri sifatida emas, balki ichki uyg‘onishdan boshlanuvchi jarayon sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Shariatiy nazariyasining eng muhim jihati — tarixiy subyektini qayta talqin qilganidadir. U tarixiy harakatni omma yoki sinf bilan emas, balki ongli qaror qabul qila oladigan shaxs bilan bog‘laydi. Bu yondashuv ijtimoiy jarayonlarga individual mas’uliyat omilini kiritadi va passiv kollektivizmni inkor etadi. Natijada jamiyatdagi turg‘unlik tashqi bosim bilan emas, balki insonning ichki loqaydligi bilan izohlanadi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy inqirozlar faqat tizim muammosi emas, balki ong muammosi sifatida talqin qilinadi.

Shariatiy qarashlarining yana bir muhim tomoni — ijtimoiy kurashni ikki qatlamda tushuntirishidir. Bir tomondan, u real ijtimoiy ziddiyatlarni inkor etmaydi, ammo ularning yuzaga chiqishini inson ongidagi ichki qaror bilan bog‘laydi. Demak, tashqi qarama-qarshilik ichki transformatsiyaning natijasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Bu yondashuv ijtimoiy jarayonlarni tushuntirishda psixologik va ma'naviy omillarni birlamchi darajaga olib chiqadi. Shuningdek, olib borilgan tahlillar Shariatiy tafakkurida intellektual mustaqillik alohida o'rin tutishini ko'rsatdi. U tashqi g'oyalarni to'liq rad etish yoki ularni ko'r-ko'rona qabul qilishni emas, balki tanqidiy o'zlashtirishni taklif qiladi. Bu yondashuv jamiyat taraqqiyotini tayyor modellarga bog'lashdan chiqarib, uni mustaqil tafakkur mahsuli sifatida ko'rishga imkon beradi. Natijada ijtimoiy rivojlanish tashqi ta'sir natijasi emas, balki ichki tafakkuriy qayta ishlash mahsuli sifatida namoyon bo'ladi.

Shu jihatdan qaraganda, Shariatiy konsepsiyasi ijtimoiy o'zgarishni faqat tashqi tizimlarni almashtirish bilan emas, balki insonning ichki dunyosini o'zgartirish orqali amalga oshadigan murakkab jarayon sifatida tushuntiradi. Bu esa uning qarashlarini zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurda muhim metodologik yondashuv sifatida baholash imkonini beradi.

### **Xulosa:**

Ali Shariatiy ning ijtimoiy-falsafiy qarashlari tahlili shuni ko'rsatadiki, u ijtimoiy o'zgarish muammosini an'anaviy yondashuvlardan farqli ravishda yangi metodologik asosda talqin qiladi. Uning konsepsiyasida jamiyat taraqqiyoti tashqi omillar bilan emas, balki inson ongining ichki transformatsiyasi bilan bog'lanadi. Shu jihatdan Shariatiy ijtimoiy jarayonlarni tushuntirishda sababiylikni tashqi tizimlardan ichki omillarga ko'chiradi.

Tadqiqot natijalari Shariatiy tomonidan tarixiy subyekt tushunchasi qayta ishlab chiqilganini ko'rsatdi. U tarixiy harakatni ommaviy yoki sinfiy kuch bilan emas, balki ongli va mas'uliyatli shaxs faoliyati bilan izohlaydi. Bu yondashuv ijtimoiy jarayonlarda individual ong va qarorning hal qiluvchi rol o'ynashini asoslaydi hamda passiv ijtimoiy modelni inkor etadi. Shuningdek, Shariatiy qarashlarida ijtimoiy kurash tashqi qarama-qarshilik sifatida emas, balki ichki ma'naviy qaror natijasi sifatida talqin qilinishi aniqlanadi. Bu esa ijtimoiy transformatsiyani faqat siyosiy yoki iqtisodiy jarayon sifatida emas, balki murakkab ma'naviy-psixologik hodisa sifatida ko'rish imkonini beradi.

Tadqiqot davomida aniqlangan yana bir muhim jihat — Shariatiy tomonidan ilgari surilgan intellektual mustaqillik g'oyasidir. U tashqi g'oyalarni mexanik tarzda qabul qilish yoki to'liq rad etish o'rniga, ularni tanqidiy qayta ishlash zarurligini asoslaydi. Bu yondashuv jamiyat taraqqiyotini mustaqil tafakkur bilan bog'lab, uni ichki rivojlanish modeli sifatida tushuntiradi. Shariatiy konsepsiyasi ijtimoiy o'zgarishni tashqi inqilob sifatida emas, balki ichki ongiy uyg'onishdan boshlanuvchi jarayon sifatida talqin qiladi. Shu orqali u zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tafakkurda ijtimoiy transformatsiyani tushuntirishning muqobil modelini taklif etadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. Asosiy manbalar (Ali Shariatiy asarlari)**

1. Ali Shariatiy. Man and Islam. – Tehran: Hosseiniyeh Ershad, 1971.
2. Ali Shariatiy. Religion vs. Religion. – Tehran: Islamic Publications, 1972.
3. Ali Shariatiy. Prison, Migration and Jihad. – Tehran: Ershad Publications, 1974.

4. Ali Shariatiy. On the Sociology of Islam. – Berkeley: Mizan Press, 1979.
5. Ali Shariatiy. Marxism and Other Western Fallacies. – Berkeley: Mizan Press, 1980.

#### II. Xorijiy ilmiy monografiyalar va tadqiqotlar

1. Ali Rahnama. An Islamic Utopian: A Political Biography of Ali Shari'ati. – London: I.B. Tauris, 1998.
2. Hamid Dabashi. Theology of Discontent: The Ideological Foundation of the Islamic Revolution in Iran. – New York: NYU Press, 1993.
3. Ervand Abrahamian. Iran Between Two Revolutions. – Princeton: Princeton University Press, 1982.
4. Farhang Rajae. Islamism and Modernism: The Changing Discourse in Iran. – Austin: University of Texas Press, 2007.
5. Frantz Fanon. The Wretched of the Earth. – New York: Grove Press, 1963.
6. Jean-Paul Sartre. Existentialism Is a Humanism. – New Haven: Yale University Press, 2007.

#### III. O‘zbekcha manbalar (monografiya va ilmiy adabiyotlar)

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. Falsafa: qomusiy lug‘at. – Toshkent: Sharq, 2016.
3. M. Baratov. Falsafa asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020.
4. N. Jo‘rayev. Milliy g‘oya va mafkura asoslari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2018.
5. A. Ergashev. Globallashuv va milliy taraqqiyot. – Toshkent: Akademnashr, 2019.
6. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti. Sharq falsafasi tarixi. – Toshkent, 2022.

#### IV. Ilmiy maqolalar

1. Dabashi H. Shariati’s Islam and the Theological Foundations of Revolution // Middle Eastern Studies. – 1983. – Vol. 19.
2. Abrahamian E. Ali Shariati: Ideologue of the Iranian Revolution // MERIP Reports. – 1982.
3. Rajae F. Islam and Modernity: Intellectual Responses // Journal of Political Ideologies. – 2001.